

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH VA FUQOROLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH

*Bo'riyeva Shaxnoza Inat qizi*

*Nizomiy nomidagi Toshknet davlat pedagogika universiteti*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik maktab o'quvchilarini milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash ularning mazmun mohiyatini tushunish bilan bir qatorda asrab-avaylash shuningdek fuqorolik tarbiyani shakllantirish haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, huquq, qadriyat, sharqona tarbiya, maktab, fuqaro.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar milliy madaniyatimiz tarixini o'rganishning unga xolisona baho berish, chunonchi o'zbek falsafasidagi ma'naviy me'rosimizni, tarixiy yodgorliklarimizni asrash, milliy, diniy qadriyatlarning tiklanishi tabiiy va ijtimoiy borliqqa yangicha munosabatning shakllanishi, shaxs erkinligi va xaq-huquqlarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi, yuksak qadriyatli ong va dunyoqarashning qaror topishini ta'minlamoqda.

Darhaqiqat, milliy, diniy qadriyatlar ularning ahvoli kelajak taqdiri kishilarni doimo qiziqtirib kelgan muammolardan biridir. Demokratiya, oshkoralik jarayoni hozirgi ko'p millatni mamlakatimizda, milliy qadriyatlarni idrok etish va anglashni taqozo e'tib, bu sohalarida yig'ilib qolgan muammolarni yangicha tafakkur asosida chuqur nazariy mushohada etishni taqozo etmoqda. Asrlar ichra jahon ilm fani, madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan otobobolarimizdan qolgan madaniy meros biz uchun bebaho xazinadir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni xalqimizning an'alarini, madaniyati va ilm-fan ko'p asrlik tajribalarini o'rgatish ijobiy pedagogik samaralarni beradi. Shu bilan bir qatorda jamiyatimizda yashovchi har bir ongli kishi, mustaqil va erkin fikrga ega bo'lgan shaxs va fuqarolik jamiyati ma'naviyatini shakllantirish va shu asosda rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining asosini tashkil etadi.[2;3] Shu sababli ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining serqirrali va murakkab kasbiy faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish yordamida ilmiy dunyoqarashini kengaytirish kabi muhim vazifalar yotadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimiga, xususan boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'qish, yozish va hisoblashni o'rgatish, tevarak atrof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini shakllantirish bilan birga ta'lim jarayonida ularda keksa insonlarga nisbatan mehr-muruvvatli bo'lishini, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi ta'limning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.[4;6] Bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilarning hissasi katta bo'lib, dars jarayoni davomida buyuk ajdodlarimizning tarixiy yo'li, qilgan ezgu ishlari, o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy qadriyatlar hususida o'quvchilarga qancha ko'p ma'lumot berilsa ularda shuncha ko'p qadriyatlarimizga qiziqish uyg'onadi. O'quvchilarda insoniy tuyg'ularni tarbiyalashning asosikishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol va rostgo'y bo'lish kabi odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy sifatlarni shakllantirish metodini tanlashda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish lozim:

- ❖ o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan u yoki bu fazilatning mazmuniga;
- ❖ o'quvchining yoshi, ruhiy holati, aql zakovati, faoliyatiga ta'sir eta oladigan bo'lishiga;
- ❖ o'quvchilar yashaydigan hudud sharoitini hisobga olish va moslashga;

Ushbu metodlar quyidagicha:

- ✚ Har bir ishda kattalarning namunasi;
- ✚ Pand-nasihah qilish, suhbat o'tkazish;
- ✚ O'yin va mashq;
- ✚ Muammoli vaziyat;
- ✚ Rag'batlantirish, tabassum, iljayish, "barakallo", yaxshi degan so'zlar;
- ✚ O'rgatish va tushuntirish;
- ✚ Mustaqillik va ijodkorlik;
- ✚ Jazolash.

Yuqoridagi tarbiya usullari xalqning kundalik hayotida qo'llanilib u yo ijobiy, yo salbiy ta'sirga ega bo'lgan. O'quvchilarni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda yuqoridagi materiallardan kompleks usulda foydalanish hayot taqozosidir.

Fuqarolik tarbiyasi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim.

1. Huquq va erkinliklar, fuqarolik tarbiyasi insonga o'zining asosiy huquq va erkinliklarini o'rganish va himoya qilishda yordam berishi kerak. Bu huquqlarga so'z erkinligi, fikr erkinligi, e'tiqod erkinligi, tenglik, adolatli sudlov huquqi va shaxsiy daxlsizlik kiradi.

2. Demokratiya fuqarolik tarbiyasi demokratik qadriyatlarni o'rgatishi, demokratik jarayonlarda shaxslarning ishtirokini rag'banlantirishi kerak. Bu saylovlarda qatnashish, ovoz berish, nodavlat tashkilotlatiga a'zo bo'lish, norozilik bildirish huquqi kabi masalalar kiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining so'z erkinligini ta'minlash qaysidir ma'noda pedagogning zimmasida u o'z fikrini erkin bayon etishi jamiyatda erkin shaxs sifatida harakatlanishi zarur.

3. Majburiyatlar fuqarolik tarbiyasi shaxsning jamiyatdagi mas'uliyatini tushunishiga yordam berishi kerak. Bu majburiyatlarga soliq to'lash, atrof-muhitni muhofaza qilish, yo'l-harakat qoidalariga rioya qilish, inson huquqlarini hurmat qilish va jamiyatdagi boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish kiradi.

4. Adolat fuqarolik tarbiyasi insonlarga adolat tushunchasini tushunishga yordam berishi kerak. Bunga qonunning teng qo'llanilishi, adolatli sudlov, inson huquqlari va qonun ustuvorligi kabi masalalar kiradi.

Shu sabablarga ko'ra fuqarolik tarbiyasi insonning jamiyatda yanada ongli, mas'uliyatli va erkin bo'lishiga ko'maklashadi va bu orqali yanada adolatli, demokratik va barqaror jamiyat barpo etishga hissa qo'shadi. Jamiyat tomonidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini yahlit qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlar yoki odatlar ma'qullanadi yoki aksincha qoralanadi.

Fuqarolik tarbiyasi bu fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy obyekti fuqarolik sanaladi. "Fuqaro"-fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat, davlat a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublikdir. Huquqiy

tarbiya-o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. 1993-yil mart oyida e'lon qilingan "Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi" da qayd etilganidek, "Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qununlarini yuksak darajada hurmat qilish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, Xalqaro tashkilotlar faoliyati haqida o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir.[5;16] Hozirgi yillarda O'zbekiston hududida fuqarolik tarbiyasi juda ham tuzatishlarga muhtojdir. Nima sababdan deganda o'z fuqarolik huquqlarini tushunmaydigan, bilmaydigan oilalar ko'payib bormoqda. Shu sababli fuqarolik tarbiyasi nima ekanligini jamiyatning ko'p sonli qismi bilishmaydi va hech qanday tushunchalarga ham ega emaslar. E'tibor berilgan bo'lsa ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda davlat siyosatida birinchi o'rinda fuqarolik tarbiyasi, vatanni sevish, jamiyatni hurmat qilish kabi g'oyalar ustuvor hisoblanadi. Jamiyatimizni rivojlantirish uchun albatta biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini fuqarolik tarbiyasini shakllantirish muhim chunki boshlang'ich sinf davri ta'limning dastlabki bosqichi o'quvchi xuddiki oq qog'ozga o'xshaydi uni pedagog qanaqa yo'lga boshlasa umrining qolgan davrlarini ham shu tarzda davom ettiradi. Dunyoning rivojlangan davlatlari misol uchun Fillandiya, Singapur, Yaponiyaning juda ham tezlikda taraqqiy etganiga nazr tashlaydigan bo'lsak ularda xalqning juda jipslashib birikkaniga, xalq o'z vatanini qadrlashiga va fuqarolik tarbiyasi yuqori cho'qqidaligiga guvoh bo'lamiz. Fuqarolik tarbiyasini kamol toptirishda yoshlar, fuqarolar o'rtasida vatanparvarlik hissini uyg'otish va ayniqsa bu ishni bolalikdan boshlab singdirib borish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, yangi O'zbekiston milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida, milliy mentalitetimizning o'ziga xos jihatlarini hisobga olib, ijtimoiy hayotimizdagi an'anaviylik va zamonaviylikka tayanilgan holatda fuqarolik jamiyatini barpo etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Fuqarolik jamiyati bu demokratik qadriyatlarni qaror toptiradigan va ularga tayanadigan jamiyatdir. Mamlakatimiz milliy taraqqiyot kontsepsiyasi Sharqona va umuminsoniy demokratiya xususiyatlaridan kelib chiqadi. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar va tamoyillar ustuvordir.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish, xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. "Xalq so'zi", 2017- yil 4-avgust .
2. Shavkat Mirziyoyev. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi," Xalq so'zi", 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet
3. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma" Central Asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.
4. Sattorov V. N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3, 710-719. (2023)
5. Sattorov V. N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. vol 3 no. 02. 36-41 (2022). ISSN (online): 16b
6. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. Тошкент "Маънавият" 2006.
7. Mamasoli Jumaboyev . O'zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent "O'ZBEKISTON" – 2003